

## USE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EVALUATION OF STUDENT KNOWLEDGE IN SPECIAL PEDAGOGICAL SCIENCES

Master Abdusalomova Maftuna Farhodjon qizi  
Kokand DPI Special pedagogical speech therapy 2nd stage

Today, independent Uzbekistan is growing economically and politically, as well as introducing itself to the world. At the same time, in order for Uzbekistan to become one of the developed countries, there is a growing need for modern personnel for the future. The independent state has its own important historical documents, in which the "National Training Program" has a special place. Modern pedagogical technologies play an important role in the development of students as students and their development into professionals.


### MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Qo'qon DPI Maxsus pedagogika logopediya 2 bosqich  
magistranti Abdusalomova Maftuna Farhodjon qizi

Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib jahonga o'zini tanitishi bilan bir qatorda iqtisodiy – siyosiy jihatdan yuksalmoqda. Shu bilan birga O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishida bugun kelajak uchun zarur bo'lgan zamonaviy kadrlarga ham ehtiyoj oshib bormoqda. Mustaqil davlat o'zining muhim tarixiy xujjatlariga ega bo'ldiki, unda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» alohida o'rin tutadi. Ta'lim berish orqali o'quvchi va talabalarni barkamol shaxs sifatida kamolotga erishishida va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida zamonaviy pedagogik texnologiyalar ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarini ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan birga boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.


Texnologiya so'ziga izohli lug'atda shunday ta'rif beriladi: texnologiya so'zi – u yoki bu ishda, san'at yoki ustachilikda qo'llaniladigan usullar yig'indisidir. Ta'lim texnologiyalarini har bir fanda qo'llanilgani kabi maxsus pedagogika fanida ham bir necha turidan foydalaniladi. Masalan, "**klasster**" ya'ni tarmoqash yana bir ma'nosi – bog'lam degan ma'noni angalatadigan ta'lim texnologiyasi bilimlarni faollashtirishga yo'naltiradi hamda fikrlovchi jarayonga mavzu bo'yicha yangi assotsiativ tasavvurni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klaster texnologiyasidan o'quv mashg'ulotining hamma bosqichlarida foydalanishimiz mumkin. Mazkur texnologiyaning bir necha turlari mavjud bo'lib, ulardan keng tarqalgan turi **klassik klasterdir**. Ushbu klasterda o'qituvchi mashg'ulotning boshida doskaning markazida mavzuga doir tayanch tushunchani yozadi va talabalardan daftariga mazkur tushunchani yozib, unga doir miyasiga kelgan fikrlarni tarmoqlashni so'raydi. Bir necha minutdan so'ng o'z fikrlarini juftliklarda va so'ngra butun guruh bilan birgalikda muhokama qilishni so'raydi. Mavzu: Kar bolalar maktabida ta'lim tamoyillarini amalga oshirilishi.



**Qog'ozli klaster** – mazkur klaster nafaqat yozma, balki og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday holatda talabalarga kartochkalarga yozilgan alohida so'z, fikr yoki gaplar taqdim etiladi. Kartochkaga yozilgan so'z, fikr yoki gapni o'qib chiqishadi va tayanch so'z yozilgan qog'ozga kerakli joyga yelimlash (yopishtirish) orqali joylashtirib chiqishadi. So'ngra talabalar tomonidan tuzilgan klaster tekshirib chiqiladi va muhokama qilinadi.

**Raqamlangan so'zlar asosida tuzilgan klaster** - Mazkur klaster mavzuni og'zaki bayon etishda voqealar ketma-ketligini aniqlashtirishga zaruriyat paydo bo'lganda foydalaniladi. Raqamlangan so'zlar asosida tuzilgan klaster jamoaviy tarzda quyidagi tartibda tuziladi: doska markazida mavzuga doir tayanch so'z yoziladi, so'ngra talabalar mazkur mavzuga doir miyasiga kelgan so'z yoki jummalarni aytishadi. Talabalar tomonidan aytilgan barcha fikrlar doskaga yozib bo'linganidan so'ng, mazkur mavzuga doir voqealarni ketma-ket muhokama qilishga kirishadi. O'qituvchi yordamchi savollar bilan yordam beradi va ular bilan birga doskaga yozilgan so'zlarning oldiga tartib bilan raqamlarni qo'yib chiqadi: birinchi gapda qo'llaniladigan so'zning oldiga 1 raqamini, ikkinchi gapda qo'llaniladigan so'zning oldiga 2 raqamini va keying raqamlarni moslab qo'yib boriladi.

## Masalan: “Surdopedagogikaning rivojlanish tarixi” mavzusida



**Guruhli klaster** – Guruhli klaster biror-bir mavzuga doir masalalarni kichik guruhlariga taqsimlash va jamoaviy tarzda klaster asosida o'quv savolining mohiyatini ochib berishni ko'zda tutadi. Masalan, “Kar bolalar maktablarida o'qitish metodlari.” mavzusi bo'yicha seminar mashg'uloti o'tkazilayotgan vaqtda talabalar guruhlariga bo'linib, quyidagi mavzularda klasterlar tuzishlari mumkin: “Umumiy metodlar”, “Maxsus metodlar”, “Xususiy metodlar”. Vatman qog'ozida tayyorlangan klasterlar asosiy mavzu atrofida yopishtiriladi. Har bir guruh a'zosi o'zining klasteriga asoslanib mavzuni bayon etadi. Shuningdek, talabalar boshqa guruh tomonidan tuzilgan klaster bo'yicha o'quv savolini bayon etib berishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Ochilov. «Yangi pedagogik texnologiyalar» ma'ruzalar matni. 2000y.
2. Azizxodjaeva N. H “Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat”- Toshkent. : TDPU, 2003
3. Xoliqov A ”Pedagogik mahorat” – Toshkent. : Iqtisod – moliya, 2010
4. Tolipov O' ”Pedagogik texnologiya” –Toshkent. : Fan, 2005
5. J. G. Yuldashev, Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. Ukuv kullanna T. «O'qituvchi» 2004 y.